

YOMG‘IR YOG‘DIRISH MAROSIMI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN KATTALAR QO‘SHIQLARI

Ximmatova Guzal Amirkulovna

Ilmiy rahbar TerDU, PhD, dots

Mustafayim0109@gmail.ru

Abdunazarova Sevara Oybek qizi

TerDu O‘zbek filologiyasi 3-bosqich talabasi

abdunazarovasevara17@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunasi hisoblangan, yomg‘ir chaqirish marosimi bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shiqlarning kattalar folklorida makon va zamon o‘rtasidagi farqlari va o‘xshashliklari atroflichcha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: marosim, yomg‘ir chaqirish, sus xotin, xalq og‘zaki ijodi.

Annotation: The article details the differences and similarities between space and time in adult folklore of songs related to the rain-calling ceremony, which is an example of Uzbek folklore.

Keyword: ceremony, calling for rain, folklore.

Mehnatsevar xalqimiz bahor mavsumi kirib kelishi bilan dalalarga ekin ekip, ularni parvarish qila boshlaydilar. O‘zbeklar marosimlarga boy xalqdir. Xalqimizning ijtimoiy - madaniy hayotini marosimlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan an’ana, urf - odat va bayramlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yil qurg‘oqchilik bilan kelganda mehnat qo‘shiqlaridan so‘z xotin, sel xotin, sut xotin, suv xotin, sust xotin deb nomlanuvchi yomg‘ir yog‘dirish marosimlari tashkil etiladi. Bu marosim nomi ham turli hududlarda turlicha aytilgan. Masalan sust xotin marosimi qadimda quydagicha

tarzda o‘tkazilgan. Qurg‘oqchilik bo‘lgan vaqtarda yosh-u qari bir joyga yig‘ilib, bir yosh bolani eshak ustiga chappa o‘tirg‘izadi va qo‘lida suv to‘la kadi ushlatgan holda va ikki tarafidan toshbaqa bog‘lab, uyma - uy olib yurishgan. Bola biror bir uy yoniga kelsa: “Voy, jonim! Kuydim-ey, kuydim!” - deb qichqirgan. Uy egalari uning ustiga suv quyushgan. Yig‘ilgan barcha yigitlar birgalikda:

Havo yog‘mas bo‘larmi?

Tomchi tommas bo‘larmi?

Saksondag'i kampirlarni

Suv oqizmas bo‘larmi?

Sust xotin-ey, sust xotin

Ko‘ylaklari bo‘z xotin...

deb qo‘shiq kuylab turishgan. Shundan keyin xonadon egalari yigitlarga tortiqlar berishgan. Bu marosimlarda asosan kattalar ishtirok etgan.

Yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir marosim nomi “sus xotin” hisoblanadi. Bu marosimda bir xoda cho‘pning ustiga ayol kiyimini kiydirib, sus xotin qo‘shig‘ini jo‘rlikda kuylab yetti uyga olib borishgan. Xonadonlardan yig‘ilgan bug‘doy un qilinib maxsus taom tayyorlangan. Bu marosim sut xotin, so‘z xotin, suv xotin nomlari bilan ham atalgan.

“Sel xotin” marosimida boshiga g‘alvir kiygan 3 xotin qo‘shiq aytib xonadonlarga kirib yurishgan. Bundan tashqari yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq marosim qo‘shiqlarida chala xotin, ko‘sam - ko‘sam kabilalarining ham markaziy obrazlarida asosan xotinlar turgan. Ajdodlarimiz bu marosimlarni o‘tkazish orqali yomg‘ir yog‘dirish mumkinligiga ishonishgan. Yomg‘ir chaqirish marosimi ham turli hududlarda turlicha o‘tkazilgan masalan: Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on tumani Qorliq qishlog‘ida bu marosim faqat erkaklar tomonidan o‘tkazilgan. Aynan shu hududda “suz xotin” so‘zi o‘rnida “so‘z xotin” etoloni ishlatishgan.⁴ Masalan:

So‘z xotin - sulton xotin,

Ko‘lankasi maydon xotin.

⁴ M.Sulaymonov “O‘zbek xalq og’zaki ijodi.83 b

Suv xotin - suvsiz xotin,
 Ko‘ylaklari bo‘z xotin.
 Hosillar mo‘l bo‘lsin, suv xotin,
 Dehqonning uyi to‘lsin, suv xotin.
 Kazzobning uyi kuysin, suv xotin,
 Suv xotin - suvsiz xotin.⁵

“Dehqonlarga qut bergin so‘z xotin” - deb qo‘shiqlar ijro etishgan.

Buxoro viloyati Qorako‘l va Olot tumanlarida yomg‘ir chaqirish marosimida aytiladigan qo‘shiq “chala xotin”⁶ deb yuritilgan. Yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq bo‘lgan bu kabi marosimlar jumladan sust xotin o‘zining tarixiy ahamiyatiga ega. U zardushtiyarning muqaddas kitobi “Avesto”da nomi tilga olingan osmon suvlari tangrisi Tishtiriyaning xalq orasida fonetik o‘zgarishga uchrashi natijasida keng tarqalgan nomidir. Sust xotin qo‘shig‘ida ijrochilar o‘zlarining yil davomidagi orzu - umidlarini ham bayon etishgan. Bu kabi ijrolar mahorat bilan kuylanganligi sababli bundan tashqari xalq dehqonchiligini rivojlantirishga bag‘ishlangan marosimlar bilan chambar - chas bog‘liq bo‘lganligi bilan mana bir necha asrlar osha bizgacha yetib kelmoqda.

Sust xotun, sulton xotun,
 Ko‘lankasi maydon xotun,
 Havo yog‘mas bo‘lama, Sust xotun,
 Tomchi tommas bo‘lama, Sust xotun.
 Yetmishdagi kampirni, Sust xotun,
 Sel opketm as bo‘lam a, Sust xotun,⁷
 kabi ijro variantlarini ham ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, xalq og‘zaki ijodi janrlari xilma - xil ko‘rinishga ega va ularning o‘z vazifasi bor. Bularning ijrochilari esa xalqdir. Xalq qayg‘uda ham, quvonchda ham, biror narsaga ishonish, mifologik etiqodlarga

⁵ O.Madiyev “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”.225 b

⁶ O.Safarov “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”.130 b

⁷ O.Safarov “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”.130 b

sig‘inishda ham marosimlarga ishonishgan va ularni o‘tqazishgan. Mavsum marosim qo‘schiqlari ham insonlar orzu - umidlarini aks ettirgan va unga etiqot qilgan. Hozirda esa mavsum bilan bog‘liq marosimlar, jumladan bahorda o‘tkaziladigan “Sust xotin” marosimini o‘tkazishga uncha ehiyoj yo‘q, sababi hozirgi kunda barcha ishlarning bajarilishini texnika egallab, insonlar og‘irini yengil qilib kelmoqdi. Lekin bu degani qadriyatlarga ham chegara qo‘yildi degani emas. Zeroiki, xalq yashar ekan uning qadriyatlari ham yashayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O.Safarov “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”. Toshkent – 2010.
- 2.O.Madiyev “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”. Toshkent – 2010.
- 3.M.Suloymonov “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”. Namangan – 2008.